



BOBURIYZODA SHOH JAHON DAVRIDA HINDISTON SALTANATIGA QARSHI ISYONLAR

Sobirov Jamshidbek Zokirjon o'g'li

Andijon Davlat Universiteti tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6727233>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

Xoni jahon Lo'diy, Shoh Jahon, Dekkon, Ahmadnagar, portugallar, sikklar, Guru, Karatpur, boburiylar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boburiyzida Shoh Jahon davrida Hindiston saltanatiga qarshi isyonlar, xususan, Pirhon yohud Xoni jahon Lo'duy isyoni hamda uning oqibati, portugallarning isyoni, Shoh Jahon taxtga chiqqan paytdayoq uning sikklar bilan munosabati keskinlashishi, Janjal arzimagan narsadan boshlanganligi va boshqalar xususida qisqacha so'z yuritiladi.

Xoni jahon Lo'diy isyoni (1628—1631). Pirhon (yohud Xoni jahon Lo'diy) boburiyzodalar saltanatidagi ancha obro'li va qobiliyatli amaldorlardan. Jahongir hukmdorligining oxirgi yillarida Dekkon xoni edi. Shoh Jahon otasi Jahongirga qarshi isyon ko'targanda, u loqaydlik bilan kuzatib turdi. Shoh Jahon unga yordam so'rab murojaat qilganda ham befarqlik bilan qarab turaverdi. Dekkon o'lkasidagi mayda davlatlarni quvvatlashga urinib ko'rdi, Balogat viloyatini Ahmadnagarga 3 lak rupiga sotib ham yubordi.

Jahongir vafotidan so'ng saltanatdagi besaranjomliklardan foydalanib, o'zini mustaqil davlat boshlig'i deb e'lon qilish payida yurgan edi. Shoh Jahon Mahobathonga xoni-xonon unvoni berib, Balogatni Ahmadnagardan tortib olishga jo'natdi, lekin u bu ishni uddalay olmadi va bundan ranjigan Shoh Jahon uni Molva hokimligidan bo'shatib, Dekkonga xon etib tayinladi.

Jajxar Singh Bandelaning isyoni tufayli Xoni jahon Lo'diy Shoh Jahonning e'tiboridan biroz chetda qolgandi. Hattoki undan shoh qo'shini bilan isyonni bostirishda yordam berish ham so'ralgandi. Isyondan so'ng, 1629 yil Shoh Jahon Xoni jahon Lo'diyini saroyga chaqirtirdi, ammo unga Jahongir davrida ko'rsatiladigan iltifot ko'rsatilmadi.

U hayoti xavf ostida turganini sezib o'sha yiliyoq Dekkon tomon qochdi. Shoh qo'shinnlari uni ta'qib etib, Chambol daryosi yaqinidagi jangda uni tor-mor qildi. U qarindosh va haramidagi kanizaklarini tashlab, Ahmadnagarga qochishga muyassar bo'ldi. Ahmadnagar xoni Murtazo Nizomshoh unga jogir hadya qildi va boburiylar o'zidan tortib olgan narsalarni qaytarib olish vazifasini topshirdi. Xoni jahonning Dekkonda paydo bo'lishi boburiylar uchun ortiqcha tashvish tug'dirdi va uni butunlay tinchitish maqsadida Shoh Jahonning o'zi yo'lga



otlandi. Xoni jahon 3 tarafdin o'rab olingach, jonini hovuchlab qochdi.

Davlatobod orqali Golkondaga kelib, u yerdan najot topmoqchi bo'ldi, lekin umidi puchga chiqdi. Boburiylar borligi tufayli Nizomshoh ham bu urushda betaraflik vaziyatida turgandi. Xoni jahonga Dekkon ham torlik qilib qoldi. U shimolga yurib, Narbada daryosidan o'tib, Bikramajidga yo'liqdi va o'sha yerda ko'p sheriklaridan ajradi. Shundan so'ng uni Muzaffar Sayid ta'qib qildi va uning safdoshlaridan juda ko'pini qirib tashladi. Xoni jahon oxirgi marta hozirgi Uttar Pradesh viloyatidagi Banda tumaniga qarashli Sixopda degan joyda jang qildi va u yerda Madxa Singh tomonidan o'ldirildi. Shunday qilib, Xoni jahon Lo'diy isyoni 1631 yilda bostirildi.

Portugallar. Portugaliyaliklarga Bengaliyaga tuz olib kelib sotishga Akbar davrida ruxsat berilgan edi. Ko'p yillargacha ular muvaffaqiyat bilan savdo ishini rivojlantirib borishdi. Keyinchalik hadlaridan oshib, mahalliy xalqni xristian dinini qabul qilishga undab, ularga tazyiq o'tkazishdi, ayrim joylarda esa qurolli hujum ham uyushtira boshladilar.

Bundan tashqari, Arakan viloyati hokimini boburiylarga qarshi urushda qo'llab-quvvatlashdi ham. Bu ishlar Shoh Jahonning g'azabini qo'zg'atdi va 1663 yilda sarkardalarga portugallarni mamlakat hududidan quvib chiqarish haqida buyruq berdi. Portugallar egallagan Xugli qal'asini uch yarim oylik qamaldan so'ng tortib olindi. Minglab portugallar o'ldirildi, bir necha kishi asirga tushdi, ko'plari islom dinini qabul qildi, yosh qizlari esa haramga tashlandi. Portugallar shu tarzda bo'ysundirildi.

Sikxlar. Shoh Jahon taxtga chiqqan paytdayoq uning sikxlar bilan munosabati keskinlashdi. Janjal arzimagan narsadan boshlandi. Shoh Jahon shikorga chiqqan paytda Amristar yaqinida qarorgoh qurgan edi. Uning ovchi lochinlaridan biri Guru Xar Govindning qarorgohiga uchib kirdi va buni ko'rgan shogird uni tutib oldi. Lochinni qaytarib olish uchun urinishlar behuda ketdi.

Guruning boburiylar orasidagi do'stlari uning yonini olib, Shoh Jahondan iltimos qilishgach, masala Guru foydasiga hal qilindi. Yana bir janjal Guru Xar Govind Bias daryosi bo'yiga yangi Govindpur shahrini qurmoqchi bo'lgan paytda sikxlar bilan boburiylar orasida chiqdi. Guruning dushmanlari Jallondor hokimi Abdullaxonni Guruga hujum qilib, shahar qurilishini to'xtatishga undadilar.

Biroq hujum mag'lubiyat bilan tugadi. Sikxlar bilan boburiylar o'rtasida yana bir bor jang bo'ldi. Bu safar Guruning shogirdi, mashhur o'g'ri Vidxi Singx shoh saroyi otxonasidan ikkita otni o'g'irlab, Guruga sovg'a qildi. Boburiylar otni qaytarib berishni talab qilganda, Guru rad javobini berdi. Kuchli qo'shin Guruga hujum qilgach, hujum qaytarildi.

Kartarpur qal'asi yaqinida yana bir bor hujum uyushtirildi, yana Guruning qo'li baland keldi. Lekin bu safar Guru to'xtovsiz urush-janjal qilib yurishning behuda ekanini tushundi. Bu hol endi tug'ilib kelayotgan sikxlar dinining bo'g'ib qo'yilishiga olib kelishi mumkin edi. Shuning uchun u Panjobdan Kashmir tog'lari orasidagi Kartarpurga ko'chib ketdi, umrining oxirigacha shu yerda yashab, 1645 yilda vafot etdi.

References:



1. Turg'un Fayziyev. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. – Toshkent: "Yozuvchi", 1996y.
2. G'ofurjon Sotimov. Boburiyodalalar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2003y.
3. G'ofurjon Sotimov. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. – Toshkent: G'ufur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008y.